e-ISSN 3060-5059
DOI: 10.67227


IJTIMOIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 10

2026



Founded in 2024

publishscience.uz | publish_science_journal@mail.ru

PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

ISSN 3060-5059 (Online)
Article / Original paper https://doi.org/10.67227/ckry1921

O‘ZBEKISTONDA DAVLAT BOSHQARUVI MODERNIZATSIYALASHUVINING IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLILI

Rasulov Siroj Sodiq o‘g‘li

Buxoro davlat universiteti, tayanch doktorant.
e-mail: sirojrasulov08021999@gmail.com **ORCID**: https://orcid.org/0009-0009-9506-0412

Annotatsiya.

Mazkur maqolada O‘zbekistonda davlat boshqaruvini modernizatsiya qilish jarayoni ijtimoiy-falsafiy tahlil asosida o‘rganiladi. Modernizatsiya ma’muriy samaradorlikni oshirish bilan cheklanmay, davlat va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarning normativ asoslarini yangilash jarayoni sifatida talqin qilinadi. Tadqiqotda institutsional islohotlar, legitimlik, siyosiy madaniyat va ijtimoiy ishonch o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik konseptual yondashuv asosida tahlil qilinadi. Shuningdek, modernizatsiyaning barqarorligi institutsional samaradorlik bilan bir qatorda normativ uyg‘unlik va fuqarolik ishtiroki darajasiga ham bog‘liq ekani asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: davlat boshqaruvi, modernizatsiya, legitimlik, siyosiy madaniyat, institutsional islohot.

СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ МОДЕРНИЗАЦИИ ГОСУДАРСТВЕННОГО УПРАВЛЕНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ

Расулов Сирож Содик угли

Бухарский государственный университет, докторант базовой докторантуры (PhD).

Аннотация.

В данной статье процесс модернизации государственного управления в Узбекистане рассматривается на основе социально-философского анализа. Модернизация интерпретируется не только как повышение административной эффективности, но и как процесс обновления нормативных основ взаимоотношений между государством и обществом. В исследовании на основе концептуального подхода анализируется взаимосвязь институциональных реформ, легитимности, политической культуры и социального доверия. Кроме того, обосновывается положение о том, что устойчивость модернизации зависит не только от институциональной эффективности, но и от нормативной согласованности и уровня гражданского участия.

Ключевые слова: государственное управление, модернизация, легитимность, политическая культура, институциональная реформа.

A SOCIO-PHILOSOPHICAL ANALYSIS OF PUBLIC ADMINISTRATION MODERNIZATION IN UZBEKISTAN

Rasulov Siroj Sodiq o‘g‘li

Bukhara State University, PhD Student.

Abstract.

This article examines the process of public administration modernization in Uzbekistan through a socio-philosophical analysis. Modernization is interpreted not merely as an improvement in administrative efficiency but also as a process of renewing the normative foundations of relations between the state and society. The study employs a conceptual approach to analyze the interrelationship between institutional reforms, legitimacy, political culture, and social trust. Furthermore, it substantiates the argument that the sustainability of modernization depends not only on institutional effectiveness but also on normative coherence and the level of civic participation.

Keywords: public administration, modernization, legitimacy, political culture, institutional reform.

Kirish. Hozirgi globallashuv va raqamlashtirish jarayonlari sharoitida demokratik islohotlar davlat boshqaruvi tizimining samaradorligini oshirishda hal qiluvchi omilga aylanmoqda. Demokratiya faqat saylovlar orqali hokimiyatni shakllantirish bilangina cheklanmaydi, unda fuqarolarning siyosiy va ma’muriy qarorlarni qabul qilish jarayonida faol ishtirok etishi ham muhim rol o‘ynaydi. Shu nuqtayi nazardan, “ochiq hukumat” konsepsiyasi, xususan, Open Government Partnership doirasidagi tashabbuslar davlat organlari faoliyatida shaffoflik, hisobdorlik va ochiqlikni kuchaytirishga xizmat qilmoqda. O‘zbekiston sharoitida davlat boshqaruvini modernizatsiya qilish kengroq ijtimoiy-siyosiy islohotlar kontekstida amalga oshirilmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Davlat organlari — xalqqa xizmat qilishning samarali vositasi” [1].

Davlat boshqaruvini modernizatsiya qilish zarurati bir qator omillar bilan bog‘liq. Avvalo, zamonaviy jamiyat

ISSN 3060-5059 (Online)

talablari tobora murakkablashib bormoqda: demografik o‘sish, urbanizatsiya jarayonlari hamda ijtimoiy tafovutlarning kuchayishi davlatdan tezkor, moslashuvchan va samarali boshqaruv mexanizmlarini talab etadi. Bundan tashqari, raqamli texnologiyalarni joriy etish davlat xizmatlarini optimallashtirish, byurokratik to‘siqlarni kamaytirish va korrupsiyaga qarshi kurashishda muhim vosita bo‘lib xizmat qilmoqda.

MAQSAD VA UNI ASOSLASH

Demokratik legitimlik masalasi ham alohida ahamiyat kasb etadi. Davlat organlarining ochiqligi va fuqarolar bilan konstruktiv muloqot olib borishi jamiyatda ishonch muhitini mustahkamlaydi. Bu esa siyosiy barqarorlikni ta’minlash va iqtisodiy taraqqiyot uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi. Demak, modernizatsiya jarayoni faqat texnologik yangilanish emas, balki boshqaruv madaniyatini, institutsional yondashuvlarni va davlat xizmatchilarining professional salohiyatini yangilashni ham anglatadi.

XXI asrda davlat boshqaruvi tizimlari global raqobat, raqamlashtirish va ijtimoiy murakkablik sharoitida tub o‘zgarishlarga duch kelmoqda. Modernizatsiya jarayoni ko‘pincha texnologik yangilanish yoki byurokratik jarayonlarni optimallashtirish sifatida talqin qilinadi. Biroq ijtimoiy-falsafiy nuqtayi nazardan modernizatsiya hokimiyatning legitimlik asoslari, fuqarolik ishtiroki va siyosiy madaniyat bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan chuqur transformatsion jarayondir. Mazkur maqolani yozishdan maqsad ushbu jarayonni institutsional, normativ va madaniy o‘lchamlar kesimida kompleks tahlil qilishdan iborat.

Maks Veberning fikricha, “Legitim hokimiyat — boshqariluvchilarning hokimiyatni qonuniy va asosli deb tan olishi natijasida shakllanadigan hukmronlik” [2]. Bu model boshqaruvning barqarorligi va prognoz qilinuvchanligini ta’minlaydi. Biroq zamonaviy jamiyatlar ko‘proq moslashuvchan va ochiq tizimlarni talab qilmoqda. Davlat boshqaruvi modernizatsiyasini ijtimoiy-falsafiy jihatdan chuqurroq anglash uchun uni faqat institutsional o‘zgarishlar doirasida emas, balki ijtimoiy tizimlarning o‘zaro integratsiyasi sifatida ko‘rib chiqish maqsadga muvofiqdir. Bu jarayonda davlat, jamiyat va shaxs o‘rtasidagi munosabatlar yangi sifat bosqichiga ko‘tariladi. Ayniqsa, zamonaviy boshqaruv nazariyalarida “yaxshi boshqaruv” (good governance) konsepsiyasi alohida ahamiyat kasb etib, u shaffoflik, hisobdorlik, samaradorlik va inklyuzivlik kabi tamoyillarni o‘z ichiga oladi. Mazkur yondashuvga ko‘ra, davlat boshqaruvi faqat yuqoridan pastga qarab amalga oshiriladigan ma’muriy jarayon emas, balki ko‘p darajali va ko‘p subyektli tizim sifatida namoyon bo‘ladi. Bu esa boshqaruvda fuqarolik jamiyati institutlari, nodavlat tashkilotlar va xususiy sektorning rolini oshiradi. Shu jihatdan, O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar davlat boshqaruvining markazlashgan modelidan bosqichma-bosqich hamkorlikka asoslangan modelga o‘tayotganini ko‘rsatadi. Bundan tashqari, modernizatsiya jarayonining institutsional o‘lchami haqida gap borar ekan, so‘nggi yillarda davlat xizmatlari markazlari faoliyati kengaytirilgani, elektron hukumat platformalari joriy etilgani, murojaatlar bilan ishlash tizimi institutsional asosga qo‘yilganini ta’kidlash lozim. Bu jarayon boshqaruvni fuqarolarga yaqinlashtirishga qaratilganini ko‘rsatadi. Raqamlashtirish boshqaruvning shaffofligini oshirish va korrupsiyaviy xavflarni kamaytirish imkonini bermoqda. Biroq institutsional o‘zgarishlarning barqarorligi ularning normativ va madaniy muhit bilan uyg‘unlashuviga bog‘liq. Hozirgi bosqichda an’anaviy iyerarxik model elementlari va menejerlikka asoslangan mexanizmlar birgalikda amal qilmoqda. Bu holat tranzitsion xarakterga ega bo‘lib, evolyutsion modernizatsiya modelini anglatadi. Mamlakatimiz rahbari ta’kidlaganidek, “Eng muhimi, davlat xizmatlarini ko‘rsatishda inson omilisiz, korrupsiya va ortiqcha byurokratiyadan xoli ekotizim yaratamiz. Davlat xizmatlarini proaktiv va jamlanma shaklda ko‘rsatish tizimini rivojlantiramiz” [3].

Modernizatsiya jarayonining muvaffaqiyati faqat ma’muriy samaradorlik bilan o‘lchanmaydi. Fuqarolarning davlatga nisbatan ishonchi va ishtiroki muhim omil hisoblanadi. Agar siyosiy madaniyat paternalistik xarakterga ega bo‘lib qolsa va fuqarolik faolligi cheklangan bo‘lsa, institutsional yangilanishlar yuzaki tusda qolishi mumkin. Shu sababli modernizatsiya jarayonida ochiqlik, muloqot va hisobdorlik mexanizmlarini kuchaytirish zarur. Ijtimoiy ishonchning ortishi davlat siyosatining legitimligini mustahkamlaydi. Bu esa uzoq muddatli barqarorlikning asosiy sharti hisoblanadi.

O‘zbekiston tajribasi shuni ko‘rsatadiki, modernizatsiya jarayoni bosqichma-bosqich amalga oshmoqda va u normativ hamda institutsional elementlarning o‘zaro ta’siriga tayanadi. Raqamli boshqaruv mexanizmlarining joriy etilishi davlat va jamiyat o‘rtasidagi masofani qisqartirmoqda. Biroq modernizatsiyaning chuqurlashuvi siyosiy madaniyatning transformatsiyasini ham talab qiladi. Fuqarolik ishtirokining kengayishi, jamoatchilik nazoratining mustahkamlanishi va ijtimoiy muloqotning rivojlanishi legitimlikni oshiruvchi asosiy omillardir [4].

Raqamli boshqaruv mexanizmlarining joriy etilishi davlat va jamiyat o‘rtasidagi masofani qisqartirmoqda. “Raqamli boshqaruv platformalari shaffoflikni oshiradi, korrupsion xavflarni kamaytiradi va qaror qabul qilish jarayonlarini fuqarolar uchun ko‘rinadigan qiladi” [5]. Shu bilan birga, modernizatsiya jarayoni institutlarning barqarorligi va normativ-madaniy uyg‘unligiga bog‘liq bo‘lib, an’anaviy iyerarxik boshqaruv elementlari bilan yangi menejerlikka asoslangan mexanizmlarning uyg‘unlashuvi jarayonning evolyutsion xarakterini ko‘rsatadi. Bu esa fuqarolik ishtiroki va jamoatchilik nazoratini kuchaytirishga imkon beradi hamda hokimiyatning legitimligini oshiruvchi asosiy omil hisoblanadi.

Biroq modernizatsiyaning chuqurlashuvi siyosiy madaniyatning transformatsiyasini ham talab qiladi. “Fuqarolar jamiyatda faollashganda, ularning qarorlar jarayonidagi ishtiroki, jamoatchilik nazorati va ijtimoiy muloqot orqali hokimiyatning legitimligi oshadi” [6]. Misol uchun, elektron hukumat platformasida murojaatlarning tezkor qayta ishlanishi hamda interaktiv xizmatlar davlat va jamiyat o‘rtasidagi masofani sezilarli darajada qisqartirmoqda. Shu bilan birga, mahalliy boshqaruv tizimlarida raqamli xizmatlarni joriy etish fuqarolarni hududiy qarorlarni qabul qilish jarayonlariga jalb etish imkonini beradi.

Ijtimoiy-falsafiy nuqtayi nazardan yana bir muhim jihat — bu siyosiy madaniyat transformatsiyasidir. Siyosiy madaniyat faqat siyosiy bilim va qadriyatlar majmui emas, balki fuqarolarning davlatga bo‘lgan munosabati, ishtirok darajasi va ijtimoiy faolligi bilan ham belgilanadi. Agar jamiyatda faol fuqarolik pozitsiyasi shakllansa, modernizatsiya

jarayoni chuqurroq va barqarorroq kechadi.

Shu nuqtai nazardan, O‘zbekistonda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish, jamoatchilik nazoratini kuchaytirish va aholi bilan ochiq muloqotni yo‘lga qo‘yish bo‘yicha olib borilayotgan siyosat modernizatsiyaning ijtimoiy asoslarini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Bu esa hokimiyatning legitimligini nafaqat huquqiy, balki ijtimoiy jihatdan ham ta’minlaydi.

Fuqarolik ishtirokining kengayishi, jamoatchilik nazoratining mustahkamlanishi va ijtimoiy muloqotning rivojlanishi legitimlikni oshiruvchi asosiy omillar sifatida ajralib turadi. “Faqat texnologik yangilanish orqali institutlar barqaror bo‘la olmaydi; ular jamiyat qadriyatlari, ijtimoiy madaniyat va siyosiy madaniyat bilan uyg‘unlashganda samarali ishlaydi” [7]. Shu jihatdan, O‘zbekistonning modernizatsiya tajribasi institutlar, normativ qoidalar va madaniyatning o‘zaro uyg‘unligi orqali boshqaruv samaradorligini oshirishga yo‘naltirilganini ko‘rsatadi.

O‘zbekistonda davlat boshqaruvining modernizatsiyalashuvi nafaqat texnologik yoki byurokratik o‘zgarish, balki hokimiyat, jamiyat va fuqarolar o‘rtasidagi munosabatlarni tubdan qayta shakllantiruvchi transformatsion jarayondir. Ushbu jarayon institutlarning barqarorligi, ularning normativ va madaniy muhit bilan uyg‘unlashuvi, raqamli boshqaruv vositalari va fuqarolik ishtiroki orqali hokimiyatning legitimligini oshirishga xizmat qiladi.

Davlat boshqaruvi modernizatsiyasi ko‘p qatlamli transformatsion jarayondir. O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar boshqaruvni samarali va xizmat ko‘rsatishga yo‘naltirilgan modelga o‘tkazishga qaratilgan. Biroq modernizatsiyaning barqarorligi uch omil muvozanatiga bog‘liq:

1. Institutsional samaradorlik.
2. Normativ asoslanganlik (legitimlik).
3. Siyosiy madaniyat va ijtimoiy ishonch.

Ushbu omillar o‘rtasidagi uyg‘unlik davlat boshqaruvi transformatsiyasining strategik muvaffaqiyatini belgilaydi.

O‘zbekistonda davlat boshqaruvining modernizatsiyalashuvi hozirgi davrda institutsional barqarorlikni ta’minlash, normativ moslashuvni kuchaytirish va fuqarolar bilan samarali aloqani yo‘lga qo‘yish bo‘yicha strategik jarayon sifatida namoyon bo‘lmoqda.

“Mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni faol rivojlantirish, barcha tarmoqlar va sohalarda, eng avvalo, davlat boshqaruvi, ta’lim, sog‘liqni saqlash va qishloq xo‘jaligida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Strategiya O‘zbekiston Respublikasining raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni rivojlantirishning strategik maqsadlari, ustuvor yo‘nalishlari hamda o‘rta va uzoq muddatli istiqbolli vazifalarini belgilaydi, shuningdek, BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari va Elektron hukumatni rivojlantirish reytingida belgilangan ustuvor vazifalardan kelib chiqib, raqamli texnologiyalarni yanada keng joriy etish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi” [8].

Modernizatsiya siyosiy va ijtimoiy madaniyatni ham o‘zgartirishni talab qiladi. “Fuqarolik ishtiroki kengayishi, jamoatchilik nazorati mustahkamlanishi va ijtimoiy muloqotning rivojlanishi hokimiyatning legitimligini oshiruvchi muhim omillardir” [9].

Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi modernizatsiya jarayonini normativ asos bilan mustahkamlaydi. U fuqarolarning qaror qabul qilish jarayonidagi ishtirokini kafolatlaydi, davlat organlarining hisobdorligini belgilaydi va shaffof xizmat ko‘rsatish tamoyillarini normativ jihatdan mustahkamlaydi. Shu orqali boshqaruv samaradorligi hamda raqamli tizimlar orqali fuqarolar bilan muloqotning uzviyligi mustahkamlanadi.

O‘zbekistonda modernizatsiya jarayoni nafaqat texnologik yangilanish va byurokratik optimallashtirishni, balki ijtimoiy-falsafiy transformatsiyani ham o‘z ichiga oladi. Raqamli boshqaruv vositalari, fuqarolik ishtiroki va normativ asoslar birgalikda hokimiyatning legitimligini oshiradi, yangi tahrirdagi Konstitutsiya esa bu jarayonni demokratik qadriyatlar va shaffof boshqaruv bilan uyg‘unlashtiruvchi normativ asos vazifasini bajaradi.

Bugungi kunda jahonda yuz berayotgan global o‘zgarishlar, zamonaviy fan-texnika sohasidagi yutuqlar, global ta’minot zanjirlarining qayta shakllanishi O‘zbekistondan ham yangi yondashuvlarni talab etmoqda. Shu bois davlat boshqaruvini modernizatsiyalash va bu boradagi islohotlarni keyingi bosqichga olib chiqish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF-21-sonli “Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni qabul qilindi. Mazkur Farmonning to‘rtinchi ustuvor yo‘nalishi “Qonun ustuvorligini ta’minlash, xalq xizmatidagi davlat boshqaruvini tashkil etish” deb nomlanib, quyidagi maqsadlarni o‘z ichiga oladi:

- aholi farovonligini ta’minlash va hududlarda kundalik masalalarni hal etishda mahallani jamoatchilik hamda davlat organlari o‘rtasidagi “tayanch ko‘prik”ka aylantirish;
- mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlarini xalqning chinakam “ovoziga” aylantirish;
- mahalliy davlat hokimiyati ijro organlari faoliyatini transformatsiya qilib, hududiy boshqaruvni “aholi manfaatlariga xizmat qilish” tamoyili asosida yo‘lga qo‘yish;
- davlat xizmatlarini raqamlashtirish ko‘lamini kengaytirish orqali aholi uchun “Servis davlat” tizimini joriy qilish, fuqaro va davlat o‘rtasidagi munosabatlarda byurokratik tartibotlarga barham berish;
- davlat boshqaruvi organlari faoliyatini “Xalq xizmatidagi davlat” tamoyili asosida tashkil etish;
- yangi O‘zbekistonni barpo etishda Oliy Majlis palatalari va siyosiy partiyalar rolini yanada oshirish;
- norma ijodkorligi faoliyatining islohotlar bilan uyg‘unligini ta’minlash va davlat huquqiy siyosatining institutsional asoslarini rivojlantirish;
- davlat fuqarolik xizmatini meritokratiya, halollik va professionallik tamoyillari asosida tashkil etish;
- xalq bilan muloqotni yanada kengaytirish orqali aholi muammolarini aniqlash va hal etish tizimining

ISSN 3060-5059 (Online)

samaradorligini oshirish;

- erkin fuqarolik jamiyatini va ommaviy axborot vositalari faoliyatini yanada rivojlantirish, O‘zbekistonni fuqarolik jamiyatini rivojlantirish bo‘yicha xabga aylantirish;
- Konstitutsiya va qonunlarning ustuvorligini ta’minlash, inson huquq va erkinliklarining ishonchli himoya qilinishini ta’minlashni sud-huquq islohotlarining bosh mezoniga aylantirish;
- davlat organlari va mansabdor shaxslarning faoliyati ustidan samarali sud nazoratini o‘rnatish hamda ma’muriy adliya tizimini yanada rivojlantirish;
- sud hokimiyatining mustaqilligini kuchaytirish va uning faoliyatida ochiqlikni ta’minlash orqali odil sudlovga erishish darajasini oshirish;
- huquqni muhofaza qiluvchi organlarning faoliyatini inson manfaatlari, qadr-qimmati va huquqlarini himoya qilishga yo‘naltirish;
- advokatura institutining salohiyatini tubdan oshirish, shuningdek, malakali huquqiy yordam ko‘rsatish tizimini rivojlantirish;
- korrupsiyaviy omillarni bartaraf etish tizimining samaradorligini oshirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish ishlarini jadal davom ettirish [10].

Ushbu maqsadlar amaliyotda to‘laqonli o‘z aksini topsa, O‘zbekistonda davlat boshqaruvi tubdan modernizatsiyalanib, “Xalq xizmatidagi davlat” tamoyili amalda qaror topadi. Boshqaruv tizimi shaffof, samarali va raqamli shaklga o‘tib, byurokratik to‘siqlar kamayadi. Albatta, bu fuqarolarning davlatga bo‘lgan ishonchini oshirib, yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan korrupsiya darajasini pasaytiradi. Hududiy rivojlanish muvozanatlashadi, sud-huquq tizimining mustaqilligi kuchayadi va inson huquqlari ishonchli himoya qilinadi. Natijada barqaror ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot ta’minlanadi.

O‘zbekistonda davlat boshqaruvi modernizatsiyasi nafaqat texnologik va byurokratik yangilanishni, balki ijtimoiy-falsafiy o‘zgarishni ham o‘z ichiga oladi. Raqamli boshqaruv platformalari va Davlat xizmatlari markazlari fuqarolarga yaqin, shaffof va samarali xizmat ko‘rsatishni ta’minlaydi. Fuqarolik ishtiroki va jamoatchilik nazorati hokimiyatning legitimligini mustahkamlaydi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiya bu jarayonni normativ asos bilan mustahkamlab, demokratik qadriyatlar va hisobdor boshqaruvni qo‘llab-quvvatlaydi. Shu orqali O‘zbekistonda modernizatsiyalashuv natijasida barqaror, shaffof va fuqarolarga yaqin davlat boshqaruvi tizimi shakllantirilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonda davlat boshqaruvi modernizatsiyasi murakkab va ko‘p qirrali jarayon bo‘lib, u institutsional islohotlar, raqamli transformatsiya hamda normativ-huquqiy asoslarning izchil yangilanishi orqali amalga oshirilmoqda. Mazkur jarayonda fuqarolik ishtirokining kengayishi, jamoatchilik nazoratining kuchayishi va ochiq muloqot mexanizmlarining rivojlanishi boshqaruvning shaffofligi va hisobdorligini ta’minlaydi. Shu bilan birga, siyosiy madaniyatning yangilanishi va ijtimoiy ishonchning ortishi modernizatsiyaning barqaror ijtimoiy poydevorini yaratadi. Natijada davlat va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro ishonch mustahkamlanib, samarali, inklyuziv va uzoq muddatli rivojlanishga xizmat qiluvchi boshqaruv modeli shakllanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh. M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2022. – B. 69.
2. Weber M. Economy and Society: An Outline of Interpretive Sociology. – Berkeley: University of California Press, 1978. – 1469 p.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi // Xalq so‘zi. – 2025. – 27-dekabr. – № 274 (9169).
4. Dahl R. A. On Democracy. – New Haven: Yale University Press, 2000.
5. United Nations Development Programme (UNDP). Governance for Sustainable Development. – 2020.
6. Dahl R. A. On Democracy. – New Haven: Yale University Press, 2000.
7. North D. C. Institutions, Institutional Change and Economic Performance. – Cambridge: Cambridge University Press, 1990.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son «Raqamli O‘zbekiston — 2030» strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmoni // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. – 06.10.2020. – № 06/20/6079/1349.
9. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2023. – B. 16.
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF-21-son «Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmoni. – URL: https://www.lex.uz/uz/docs/-8050769#-8052094.